

## “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDA AXLOQIY QADRIYATLARNI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLAR TIZIMI

Sevinch Sa’dullayeva,  
NavDU Tillar fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Yuldashev Farrux Haqberdiyevich,  
Filologiya fanlari doktori, dotsent.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada “Mahbub ul-qulub” asarida uchraydigan axloqiy qadriyatlarini ifodalovchi leksik birliklar tizimi tahlil qilingan. Asarda qo‘llanilgan so‘z va iboralar orqali insoniy fazilatlar hamda ma’naviy qadriyatlarining ifodalanishi o‘rganildi. Tadqiqot davomida leksik birliklarning semantik guruhlari aniqlanib, ularning badiiy-estetik vazifasi yoritildi. Shuningdek, mazkur birliklarning jamiyat hayotidagi o‘rni va yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** axloqiy qadriyatlar, leksik birliklar, leksik-semantik tizim, sinonimik qatorlar.

**Аннотация.** В данной статье анализируется система лексических единиц, выражающих моральные ценности, встречающихся в произведении «Махбуб уль-кулуб». Изучено выражение человеческих качеств и духовных ценностей посредством слов и фраз, используемых в произведении. В ходе исследования были выделены семантические группы лексических единиц и подчеркнута их художественно-эстетическая функция. Также проанализирована роль этих единиц в жизни общества и их значение в воспитании молодого поколения.

**Ключевые слова:** моральные ценности, лексические единицы, лексико-семантическая система, синонимические ряды.

**Abstract.** This article analyzes the system of lexical units expressing moral values found in the work “Mahbub ul-qulub”. The expression of human qualities and spiritual values through the words and phrases used in the work was studied. During the study, semantic groups of lexical units were identified and their artistic and aesthetic function was highlighted. The role of these units in the life of society and their significance in the upbringing of the younger generation were also analyzed.

**Keywords:** moral values, lexical units, lexical-semantic system, synonymous series.

**Kirish.** O‘zbekistonda milliy istiqlol sharofati bilan ajdodlarimizdan asrlar osha yetib kelayotgan ma’naviy va moddiy merosni bugungi avlodga aslidagidek yetkazish, ularni ilmiy asosda tadqiq etish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Muayyan davrning til, tarix, madaniyat bilan bog‘liq muammolarini hal qilishda yozma yodgorliklarga murojaat qilish muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Xususan, muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev “Ona tilimiz-milliy o‘zligimizni, qadriyatlarimizni va boy ma’naviy merosimizni aks ettiruvchi muhim omildir”- deya ta’kidlaganlar. Darhaqiqat, Alisher Navoiy ijodini chuqur o‘rganish va uni hayotga tatbiq etish har birimizning sharafligimizdir.

Alisher Navoiy asarlarini o‘qib-o‘rganishning ma’naviy hayotimizdagi o‘rni beqiyosdir. O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi, buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy ijodi milliy ma’naviyatimiz va axloqiy tafakkurimiz rivojida beqiyos o‘rin tutadi. Uning asarlarida inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va axloqiy qadriyatlar masalasi markaziy o‘rinni egallaydi. Navoiy o‘z ijodida nafaqat badiiy-estetik go‘zallikni, balki chuqur ma’naviy-axloqiy g‘oyalarni ham yuksak darajada ifodalagan.

Hazrat Navoiy nafaqat ulug' mutafakkir, ulug' shoir, balki o'z xalqi, millati taqdiriga befarq bo'lmagan buyuk murabbiy ham edi. U o'z umri intihosida ham millat va xalq dardi bilan yashadi. "Mahbub ul-qulub" asarida jamiyat bilan bog'liq orzu-umidlarini ifodaladi. Unda jamiyat hayotini yuksaltirish, uni to'g'ri yo'lga solish va shaxs ma'naviyatini tarbiyalash kabi o'zining so'nggi armonlarini vasiyat qilib qoldirdi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mutafakkirning nasriy merosi orasida "Mahbub ul-qulub" alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur asar insonlarning turli tabaqalari, ularning fe'l-atvori, axloqiy sifatleri va jamiyatdagi o'rni haqida chuqur falsafiy hamda didaktik mulohazalarni o'z ichiga oladi. Asarda insoniy fazilatlar ulug'lanib, salbiy illatlar keskin tanqid qilinadi. Shu jihatdan, "Mahbub ul-qulub" nafaqat adabiy, balki axloqiy-ma'rifiy asar sifatida ham katta ilmiy qimmatga ega.

"Mahbub ul-qulub" turkiy adabiyotda yaratilgan didaktik asarlarning ilk namunalardan bo'lish bilan birga Navoiyning hayoti oxirida yaratilgan hamda uning dunyoqarashini yaxlit tarzda ifodalaydigan yirik falsafiy-axloqiy qomus sifatida bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. "Mahbub ul-qulub"dagi hikmatlarning aksariyati xalq maqollariga aylanib, keyingi avlodlarning tarbiyasi uchun dasturilamal bo'lib kelmoqda.

"Mahbub ul-qulub" asari Alisher Navoiyning inson va jamiyat haqidagi axloqiy qarashlarini mujassam etgan muhim nasriy manbalardan biridir. Ushbu asarda muallif turli ijtimoiy qatlam vakillarining xulq-atvori, fazilat va nuqsonlarini tasvirlar ekan, axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi leksik birliklardan keng foydalanadi. Asarda ifodalangan axloqiy qadriyatlarni mazmunan bir necha guruhlariga ajratish mumkin:

1. Ijobiy axloqiy fazilatlarini ifodalovchi leksik birliklar alohida o'rin tutadi. Jumladan, *adolat, saxovat, muruvvat, hayo, sabr, shukr* kabi tushunchalar inson kamolotining asosiy mezoni sifatida talqin qilinadi. Navoiy adolatni jamiyat barqarorligining asosi sifatida ko'rsatib, uni eng oliy fazilatlardan biri deb baholaydi. Saxovat va muruvvat esa insonning boshqalarga nisbatan mehr-oqibatini ifodalovchi muhim axloqiy sifatlar sifatida ulug'lanadi. Bunday birliklar asarda ijobiy baho semantikasi bilan qo'llanib, o'quvchini ezgulikka undash vazifasini bajaradi.

2. Salbiy axloqiy sifatlarini ifodalovchi leksik birliklar ham muhim o'rin egallaydi. Asarda *yolg'on, hasad, kibr, baxillik, jaholat* kabi tushunchalar keskin tanqid ostiga olinadi. Muallif bu kabi illatlarni jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida talqin etadi. Ushbu leksik birliklar orqali salbiy baho, tanqidiy munosabat va ogohlantiruvchi mazmun ifodalanadi.

3. Ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni bildiruvchi tushunchalar ham keng yoritilgan. Jumladan, *do'stlik, insoniylik, ota-ona hurmati, sadoqat* kabi tushunchalar insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi muhim mezonlar sifatida talqin qilinadi. Bu birliklar orqali jamiyatda sog'lom muhitni shakllantirish g'oyasi ilgari suriladi. Shuningdek, asarda axloqiy qadriyatlar nafaqat alohida so'zlar orqali, balki iboralar,

hikmatli soʻzlar va kontekstual maʼnolar vositasida ham ifodalanadi. Bu esa ularning semantik qamrovini kengaytirib, asarning maʼnaviy-estetik taʼsir kuchini oshiradi.

**Muhokama va natija.** “Mahbub ul-qulub” asarida axloqiy qadriyatlar turli leksik birliklar orqali ifodalangan. Ushbu birliklar insonning maʼnaviy kamoloti, odob-axloqi hamda jamiyatdagi oʻrnini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida ayrim leksik birliklarning semantik strukturasi haqida baʼzi fikr-mulohazalarni aks ettirib oʻtamiz.

“Adolat” leksik-semantik guruhiga oid leksemalar: adolat(odillik) – *odilona ish tutish, odil, adl soati, adolat, adolatparvarlik, adolatpesha, mulk ahli.*

“Adolat” leksemasi mazkur asarda – yuksak axloqiy sifat hisoblanib, Alisher Navoiy davridagi barcha shohlarda ushbu xislat boʻlishini chin dildan xohlagan. Asarda “Bir soatlik adolat ikki dunyo ibodatidan: insonlar va jinlar ibodatidan afzalroqdir” (M.Q. 13 - b), deya keltirilgan. Ushbu jumlar bugungi kun rahbarlari, jamiyat ustunlari uchun ham bir oʻgitnoma sifatida ahamiyatlidir. Yoki “Muruvvatli – muruvvat qiluvchi, saxovatli, himmatli”, – deyiladi. Muruvvatlilik – mehribonlik va oliyanoblik kabi ijobiy sifatlarni oʻzida mujassam etib, boshqalarga begʻaraz yordam koʻrsatishni anglatadi. Asarda ushbu leksemaga quyidagicha misol keltirilgan: “Yasovul olgan haqi xizmatidan kam boʻlsa, bu uning mard va muruvvatliligiga dalolatdir. Agar astoydil ishini bitirsa-yu, oʻz haqini olmasa, bunday kishi haqiqiy avliyo desa boʻladi.

*Xushfeʼlilik* – insonning boshqalarga nisbatan mehribon, muloyim, samimiy munosabatda boʻlishi, ayniqsa, ogʻir holatda boʻlgan kishilarga ruhiy dalda bera olish qobiliyatini ifodalovchi axloqiy fazilatdir. Bu sifat tibbiyot sohasida ayniqsa muhim boʻlib, tabibning nafaqat kasbiy mahorati, balki uning insoniy fazilatlari bilan ham bogʻliqdir. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida bu jihat quyidagicha ifodalanadi: “Tabib oʻz fanida mohir va bilimdon boʻlishi bilan birga bemorlarga nisbatan shafqatli va marhamatli boʻlishi lozim. U soʻzlari bilan bemor koʻnglini koʻtara oladigan, xushfeʼl va yoqimli muomala egasi boʻlishi kerak. Bunday tabibning nafaqat ilmi, balki odobi ham bemor qalbiga taskin bagʻishlaydi”.

Omonatni ifodalovchi leksemalar: *Halollik, toʻgʻrilik, xiyonat qilmaslik.*

Asarda omonat soʻziga izoh quyidagicha keltiriladi: Ishonchlilik, toʻgʻrilik, halollik; saqlash uchun berilgan narsa, tuhfa; meros.Omonatni saqlash (axloqiy masʼuliyat) – boshqalarning mulki, sir yoki ishonchini eʼzozlash va himoya qilish, ruxsatsiz foydalanmaslik qobiliyatini ifodalovchi axloqiy fazilatdir. Bu sifat ayniqsa kotiblar va shoirlar kabi soʻz va maʼlumot bilan ishlovchi kasblarda muhim hisoblanadi.

Alisher Navoiy buni asarda quyidagicha ifodalaydi. “Kotiblar va shoirlar varaqlarni bezovchilatmasligi, soʻz xazinasining xazinachisi boʻlishi lozim. Xazinachining hunari – omonatni saqlashdir, agar u ruxsatsiz sarf etsa, xiyonatkordir.”

Shunday qilib, bu kasb nafaqat hunar, balki axloqiy masʼuliyat bilan ham bogʻliq ekanligi koʻrsatilgan. Zohid (zuhd-taqvoli) soʻzini ifodalovchi leksemalar: *Dindorlik, poklik, dunyoga berilmaslik* – “Mahbub ul-qulub” da ushbu leksemaga quyidagicha taʼrif

beriladi: Insonning ma'naviy tozaligi, dunyoviy tushunchalardan cheklanishi va axloqiy mas'uliyatini namoyon etishi sifatlarini bildiradi. Bu fazilat ayniqsa, muazzin kabi diniy xizmat bilan shug'ullanuvchi kishilarga xosdir.

“Mahbub ul-qulub” da bu jihat quyidagicha misol bilan ifodalanadi: “Muazzin pok yuzli va zohid bo'lsa, uning ovozi yoqimli va azoni dilkash bo'ladi. Bunday kishiga jonni fido bo'lsin” – deya e'tirof bildiriladi. Aksincha, agar u aytilgan fazilatlarining teskarisi bo'lsa, azonini to'g'ri ayta olmaydi va bu xulqi noto'g'ri hisoblanadi. Shu tarzda, muazzinning kasbiy vazifasi va axloqiy fazilati uzviy bog'liq ekanligi ko'rsatilgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” adabiy merosi axloqiy, tarbiyaviy va ma'naviy kamolot uchun beqiyos manbadir. Milliy ma'naviyatimizga oid leksemalarning leksikografik talqini o'z-o'zidan emas, asardagi leksik birliklar tizimi orqali ifodalangan qadriyatlar insonni ma'naviy jihatdan yetuk, bilimli va fazilatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'za va so'z birikmalari. 5 jildli. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006
2. “Mahbub ul-qulub”. Hozirgi o'zbek tiliga tabdil. Toshkent: “Sano-standart”
3. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz”. – Toshkent: O'zbekiston, 2017
4. Sh.Sirojiddinov,D.Yusupova,O.Davlatov. “Navoiyshunoslik” darsligi. Toshkent: “Akademnashr”, 2020.

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934